KLASTER YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

allayorovasarvinoz78@gmail.com

+99893:489-81-91

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy fanda ijtimoiy-gumanitar fanlarini o’qitishda klaster yondashuvini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritib borilgan. Shuningdek ta’lim tizimida global o’zgarishlar tendensiyalari va ijtimoiy iqtisodiy o’zgarishlarning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash ,tavsiflash imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so’zlar: Klaster, infratuzilma, global, tizim, jamiyat, tadqiqot, guruh, innovatsiya,tendensiya

Mamlakatimizda Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida [1] ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan holda, ta’lim standartlarini joriy etish, oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayoni mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o‘quv fan dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, xalqaro va mahalliy mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan, ijtimoiy va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanish jarayoniga munosib hissa qo‘sha oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan. Bunda “axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabaning turar joyidan qat’i nazar, unga ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish; masofaviy ta’lim shakli joriy etish mumkin bo‘lmagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilash; masofaviy ta’lim bo‘yicha qabul parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalarida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilgan holda bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik (idora), moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida tegishli oliy ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida nodavlat oliy ta’lim tashkiloti muassisi tomonidan belgilangan

tartibda tasdiqlash hamda ta’lim jarayonini to‘lov-kontrakt asosida amalga oshirish; masofaviy ta’limni maxsus platforma yordamida yoki mavjud platformalardan foydalangan holda tashkil etish; masofaviy ta’limda bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:50 nisbatda belgilash; masofaviy ta’lim bo‘yicha o‘quv jarayonini davlat ta’lim standarti, kasbiy standartlar va malaka talabi asosida ishlab chiqilgan o‘quv rejalari hamda o‘quv dasturlari asosida amalga oshirish; masofaviy ta’limga talabalarni qabul qilish va o‘quv jarayonini tashkil qilish tartibini belgilash, shuningdek, masofaviy ta’lim sifati monitoringini tashkil etish”[2].

Mamlakatimizning hozirgi kundagi rivojlanish taraqqiyotini texnika va texnologiyalar sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlar bilan bog‘laydigan bo‘lsak, aynan shu jihat jamiyatimizda ma’lum xususiyatlarga ega shaxslarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha oliy ta’lim muassasalarida (OTM) o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga tayangan yetakchi pedagogik va raqamli texnologiyalar, o‘quv dasturlari va uslubiy-didaktik materiallarni keng tadbiq etish asosida mustaqil ta’lim soatlari foyizini ko‘payterish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, kompetentli tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, o‘quv jarayoniga kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, talabalarning bilimlarini rivojlantirish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirish talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish hamda xolisonaligini ta’minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish; talabalar tomonidan fanlarni o‘zlashtirishda ular orasida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish; ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalaridagi fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobidan bosqichma-bosqich kamaytirish hamda mutaxassislik fanlariga aloqador fanlarni tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish; muhandis-dasturchilik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, texnika oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqish hamda rivojlantirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy raqamli va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta’lim maktabiga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali kadrlarni etkazib berish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Jamiyat hayotining global o'zgarishlar eng yaqqol namoyon bo'ladigan sohalaridan biri bu ta'lim tizimidir. Bugungi kunda quyidagi *tendensiyalar majmui* yaqqol ko‘zga tashlanadi: ta’lim va tarbiya mazmuni, usullari, shakllarini doimiy yangilash, ularni ijtimoiy tartib va davlat manfaatlariga muvofiqlashtirish; ta'limda innovatsiyalarni rag'batlantirish; ta'lim sifatini oshirishga yondashuvlarni ishlab chiqish; inson salohiyatini rivojlantirish yo'llari va vositalarini izlash. Ularning amalda tatbiq etilishi ijtimoiy hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan tashqi farqlarga qaramay, bir xil faoliyat va rivojlanish qonunlariga bo'ysunadigan hodisalarning ishtiroki tufayli amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847 sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-4545884

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 559-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-6221502

3. Мусурманов Р. Педагогик тажриба-синов ишларини ташкил этиш ва бошқариш. –Т.: “Фан ва технология”, 2011. - Б. 144.

4. Мухамедов Ғ.И, Хўжамқулов У.Н., Тоштемирова С.А. Педагогик

5. таълим инновацион кластери. -Т.: Университет, 2020. - 280 б.

6. Скорнякова, Э. Р. Кластерная модель управления образовательным

7. процессом в школе [Текст] / Э. Р. Скорнякова // Государственное и муници-

8. пальное управление в XXI веке: теория, методология, практика. – 2011. – №

9. Baxtiyorovna, A. S. (2023). Ta'lim jarayonidagi klaster yondashuvi hamda uning nazariy asoslari. Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 4(6), 28- 34.

10. Allayorova, S. B., Mirsodiqova, R. L. (2023). Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida. Konferensiya, 1(1), 38-40.

11. Allayorova, S. B. (2023). Ta'lim klasterida pedagogik innovatsiyalar tushunchasi. Mugallim, 1(1), 219-223.

12. Allayorova, S. B. (2023). Ta'lim samaradorligini o'stirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari. Mugallim, 1(1), 213-218.

13. Allayorova, S. B. (2023). Ta'limda innovatsion uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning nazariy asoslari. NamDU xabarlari, 2(2), 453-460.

14. Allayorova, S. B. (2022). Ilmiy tadqiqot klasterning nazariy asoslari. Konferensiya, 3(3), 174-176.

15. Allayorova, S. B., Ximmataliyev, D. O. (2022). Ta'lim tizimida integratsiya pedagogik innovatsion klasteri. Konferensiya, 2(2), 125-127. 9. Allayorova, S. B. (2022). O'quvchilarda didaktik o'yinlar orqali kreativ fikrlashni shakllantirish. Konferensiya, 1(1), 431-433.

16. Allayorova, S. B., Janbayeva, M. S. (2022). Formation of Creative Activity in Students Through the Use of Problematic Education in the Educational Process. International Journal of Development and Public Policy, 2(3), 110-114.

17. Аллаёрова, С. Б., & Кораев, С. Б. (2021). Ўкиш саводхонлигига қўйилаётган замонавий талаблар (PIRLS халкаро бахолаш